

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14498602>

## TEMIR YO‘LLAR QURILISHIDA QO‘LLANILADIGAN ZAMONAVIY GEODEZIK ASBOBLAR

Fayzullayeva Lobar Xayrulla qizi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada temir yo‘l izlari va obyektlari hamda ularni qurishda foydalaniladigan geodezik asboblar haqida ma‘lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** temir yo‘l, inshoot, elektron taxeometr, aniqlik diapazoni, avtomatlashtrish, elektron teodolit, lazerli nivelir.

### ANNOTATION

*This article provides information about railroad tracks and objects, as well as geodetic tools used in their construction.*

**Key words:** railway, structure, electronic total station, accuracy range, automation, electronic theodolite, laser level.

**KIRISH.** Temir yo‘llar bu – murakkab texnik tizim hisoblanib, katta sondagi inshootlar va qurilmalardan, mexanizm va mashinalardan, avtomatlashgan jihozlardan tashkil topgan bo‘ladi hamda yo‘lovchi va yuklarni tashiydigan, texnika inshootlari majmui bilan jihozlangan transport korxonasıdir. Temir yo‘l obyektlari tarkibiga ko‘priklar, tunnellar, yer osti va yer usti hajmli inshootlari va temir yo‘l qatnovi uchun xizmat qiladigan barcha bino va inshootlar kiradi. Akveduk, viaduk va ko‘priklar asosan avtomobil yo‘llari bilan kesishgan joylarda, jarlik mavjud bo‘lgan yerlarda quriladi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA:** Hozirgi davrdagi geodezik asbobsozlikning ajralib turadigan jihatlaridan asosiysi ilg‘or zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan texnologik o‘sish bo‘ldi. Zamonaviy geodezik asboblar faqat optik asboblar bo‘la qolmay, balki kompyuterlashgan optik elektron sistemalar yo‘nalishida rivojlanmoqda va geodezik asboblar ishlab chiqaruvchilar an‘anaviy optik asboblar bilan birgalikda zamonaviy optik elektron asboblar – elektron teodolitlar, taxeometrik stansiyalar, elektron (raqamli), lazerli nivelirlar va boshqa asboblar ishlab chiqilmoqda. Bunday asboblarning ko‘pchiligi

mexanik blok, optik blok va tarkibida o'lhash moduli va interfeysli modul bo'lgan elektron blokdan iborat.[1] Temir yo'l qurilishida ko'pgina geodezik asboblar, shular jumlasidan elektron taxeometrning o'mni beqiyosdir.



**Elektron taxeometr** eng ommaviy bo'lib, ko'p firmalar tomonidan chiqarilmoqda. Har bir firma o'z asboblarini kodlash sistemasiga ega. Ular odatda ma'lum aniqlik diapazonini qamrab oladigan bir avlod asboblarining 3-sinf (seriyasi) chiqariladi.

### 1-rasm. "STONEX R3+350

Har bir seriyada o'rnatilgan diapazon doirasida aniqligi, avtomatlashtirish darajasi va qo'shimcha funksiyalarning har-xil to'plami bo'yicha farqlanadigan bir necha modifikatsiyasi bo'ladi shulardan biri (1-rasm).

**Natijalar va munozaralar.** Taxeometrik stansiyalar masofalarni va burchaklarni bevosita o'lhash - qutubli syomka, rejlash ishlari, masofani vositali aniqlash, balandlikni aniqlash, maxsus ishlarni – doiraviy qabullar usulida, doiraviy egrilarni rejlash, foydali syomka, poligonometriyani o'rnatish va boshqa maxsus ishlarni bajarishda qo'llaniladi[1].

**Zamonaviy elektron taxeometrik stansiyalar avtomatlashtirish darajasiga ko'ra mexanik, motorlashtirilgan, robotlashtirilgan (dioaloqa orqali olisdan motorlashtirilib boshqariladigan) turlarga bo'linadi.**

Burchakli va chiziqli o'lhash aniqligi bo'yicha ular tegishlicha

o'rtacha aniqlikda:  $m_B=3-5''$ ;  $m_D=5+[5-3]$  mm/km;

aniq:  $m_B=2-3''$ ,  $m_D=3+[3-2]$  mm/km;

yuqori aniqlikda:  $m_B=1''$ ,  $m_D=1+[2-1]$  mm/km;

o'rta kvadratik xatoliklar bilan o'lchaydiganlarga bo'linadi. [1]

### 1-jadval

Burchak o'lhash aniqligi	5"
Burchak o'lhash uslublari	Mutloq, doimiy va diametrik
O'lhash aniqligi	2 mm + 2 ppm
Prizma aniqligi	1.5 mm + 2 ppm

<b>Nurqaytargichsiz o'lchash masofasi</b>	500 m
<b>Nurqaytargich bilan o'lchash masofasi</b>	3 500 m
<b>Yaqinlashtirish</b>	30x
<b>Tasvir turi</b>	“STONEX R3+350” elektron taxeometrining tarkibiy qismlari
<b>Ko'rish maydoni</b>	1° 30' (1.66 daraja) / 2.7 m ga 100 m masofa
<b>Kompensator aniqligi</b>	1.5
<b>Ishchi xaroratlari</b>	- 20° .. +50° C
<b>Og'irligi</b>	5.1 kg
<b>Quvvatlagich</b>	Li-Ion (GEB211)
<b>Operatsion tizim</b>	Windows CE 5.0
<b>Xotira</b>	100 mingta nuqta.
<b>Ekran</b>	CH/B (oq/qora) yuqori aniqlik

Elektron taxeometrlarning paydo bo'lishi taxeometrik syomkani to'la va qisman avtomatlashtirish imkonini tug'dirdi. Bunda asbob syomkali nuqtalarda o'rnatiladi va piketli nuqtalarga taxeometr komplektiga kiradigan qaytargichli nishon tayoqchalar qo'yiladi. Bu hamda yondosh va syomkali nuqtalardagi nishon tayoqchalarga asbob trubasi yo'naltirilganda ufqiy va tik burchaklar hamda bu burchaklargacha masofa avtomatik rejimda aniqlanadi. Taxeometrning mikro EHMi o'lchash natijalariga avtomatik tarzda ishlov beradi va  $\Delta x$  va  $\Delta y$  miqdor orttirmalarni, yondosh syomkali hamda piketli nuqtalargacha nisbiy balandliklarni aniqlaydi.

Bunda o'lchanadigan masofalarga va o'lchanadigan burchaklarga asbob tik o'qini qiyaligi ta'siri uchun ham tuzatmalar avtomatik tarzda hisobga olinadi.



**2-rasm. “STONEX R3+350 elektron taxeometrini ishchi holatga keltirish**

O‘lchashlar natijalari maxsus xotira (informatsiya yig‘uvchi) moslamalariga kiritilishi yoki magnitli kassetaga yozilishi mumkin. Keyinchalik informatsiya magnitli kasseta – yig‘uvchidan EHMga kiradi, u maxsus dastur bo‘yicha o‘lchashlar natijalarini yakuniy ishlovini bajaradi, syomkali va piketli nuqtalarning koordinatalarini hisoblashni, joy topografik rejasini grafikli yasash va joyning raqamli modelini tuzish uchun zarur bo‘lgan xisoblashlarni o‘z ichiga oladigan o‘lchashlar natijalarini topografik rejasini yasashni EHM bilan ulangan grafoyasovchida amalga oshiriladi.

**Xulosa.** Temir yo‘llar iqtisodiyotning qon tomiri hisoblanadi. Chunki, uzoq masofalar uchun yirik qatnovlar temir yo‘l transporti orqali amalga oshiriladi. Yuk va yo‘lovchi tashishda respublikamizda temir yo‘l transporti yetakchi o‘rinni egallaydi. Shuning sababli temir yo‘l izlarini mustahkam qurish, noqulay ob-havo sharoitida ham xavfsiz tashishlarni amalga oshirish muhim sanaladi. Respublikamizda bu kabi ishlarni nazorat qiluvchi vakolatli organ “O‘zbekiston temir yo‘llari AJ” va uning hududiy bo‘linmalaridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Методические указания. Построение геодезических разбивочных сетей для многопролетных мостов длиной 1км. М., 1974 г.
2. A.Sh.Shorustamov, R.Ya.Abdullayev “Temir yo‘l bekatlari va tugunlari” Toshkent Cho‘pon 2007. Darslik.
3. A.Sh.Shorustamov, R.Ya.Abdullayev “Temir yo‘llar umumiyl kursi” Toshkent “Ilm-ziyo” 2012. Kasb hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma.
4. Аликулов, Г., & Аралов, М. (2022). Рельефнинг рақамли моделларини учбувчиниз усниш аппаратлари ёрдамида яратиш. Innovatsion Texnologiyalar , 47(4), 131–134.
5. Aliqulov, G. N., & Aralov , M. M. (2023). Masofadan zondlash ma’lumotlari yordamida irrigatsiya tarmoqlari kartasini tuzish. Research and education, 2(10), 173–180.
6. Aralov Muzaffar Muxammadiyevich. (2024). Development of Graphic Training of Future Engineering Students in Teaching the Science of Topographic Drawing. International Journal of Formal Education, 3(7), 13–16.
7. Aralov Muzaffar Muxammadiyevich, A. M. M. (2024). OTM talabalarining grafik tayyorgarlikligini rivojlantirish vositasi sifatida. Farg‘ona Davlat Universiteti, (6), 138.

8. Aralov , M. M., & Halimova , F. A. qizi. (2024). Zamonaviy geodezik usullarda muhandislik obyektlarini o‘lchash. Educational Research in Universal Sciences, 3(5), 51–56.
9. Fayzullayeva, L. X. qizi ., & Baxtiyorova, S. N. qizi . (2024). Qashqadaryo viloyati hududi avtomobil yo‘llari turlari va uning himoya hududlari. Educational research in universal sciences, 3(11), 109–113.
10. Aralov Muzaffar Muxammadiyevich. (2024). Bo‘lajak muhandislarning grafik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik sharoitlar va o‘quv-uslubiy ta’midot. Research and education, 3(10), 71–75.
11. Aralov Muzaffar Muxammadiyevich, & Baxtiyorova Shodiyona Nurmajet qizi. (2024). Avtomobil yo‘llarini loyihalash va qurishda geodezik ishlarni tashkil etish. Research and education, 3(10), 76–80.
12. railway.uz
13. google.uz